

**THE DISTINCTIVE FEATURES OF AL-JAWHARI'S DICTIONARY "AŞ-ŞİḤĀḤ"  
AND AN ANALYSIS OF ITS ENANTIOSEMIC UNITS***Sirojiddin M. Sotvoldiev*

Associate Professor

Department of Languages-1

Oriental University

[sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com](mailto:sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com)

Tashkent, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Arabic linguistics, enantiosemy, addād, lexicography, al-Jawharī, aṣ-Ṣiḥāḥ, antonymy, contradiction.

**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article analyzes the characteristics of enantiosemic units (addād), considered one of the unique linguistic phenomena of Arabic linguistics. It also examines the approaches of linguists to this phenomenon and the semantics of enantiosemic lexemes presented in al-Jawharī's dictionary "aṣ-Ṣiḥāḥ". Furthermore, the article explores important information regarding al-Jawharī's role in the history of Arabic lexicography, the structural principles of the "aṣ-Ṣiḥāḥ" dictionary, and the scientific and literary environment of the period.

**JAVHARIYNING "AŞ-ŞİḤĀḤ" LUG'ATI O'ZIGA XOSLIGI VA UNDAGI  
ENANTIOSEMIK BIRLIKLAR TAHLILI***Sirojiddin M. Sotvoldiyev*

dotsent v.b.

Tillar-1 kafedrası

Oriental universiteti

[sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com](mailto:sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** arab tilshunosligi, enantiosemiya, azdad, leksikografiya, Javhariy, Sihoh, antonimiya, ziddiyat.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab tilshunosligining o'ziga xos til hodisalaridan biri hisoblangan enantiosemik birliklar (azdad) xususiyatlari, tilshunslarning bu hodisaga yondashuvi, Javhariyning "aṣ-Ṣiḥāḥ" lug'atida keltirilgan enantiosemik leksemalar semantikasi tahlil qilingan. Shuningdek, arab

leksikografiyasi tarixida Javhariyning tutgan oʻrni, “aṣ-Ṣiḥāḥ” lugʻatining tuzilish prinsiplari, davr ilmiy-adabiy muhiti yuzasidan muhim maʼlumotlar oʻrganilgan.

## ОСОБЕННОСТИ СЛОВАРЯ “АС-СИХАХ” АЛЬ-ДЖАУХАРИ И АНАЛИЗ ЭНАНТИОСЕМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В НЁМ

*Сирожиддин М. Сотволдиев*

*и.о. доцента*

*кафедра Языки-1*

*Университет Ориентал*

[sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com](mailto:sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

<b>Ключевые слова:</b>	арабское	<b>Аннотация:</b>	В данной статье
языкознание, энантиосемия, лексикография, антонимия, противоречие.	аздод, Сихах,	анализируются энантиосемических единиц (аздод), считающихся одним из специфических языковых явлений арабского языкознания, подходы лингвистов к этому явлению, а также семантика энантиосемических лексем, приведённых в словаре “ас-Сихах” аль-Джаухари. Кроме того, рассматриваются важные сведения о месте аль-Джаухари в истории арабской лексикографии, принципах составления словаря “ас-Сихах” и научной-литературной среде той эпохи.	особенности единиц (аздод),

**Kirish.** X–XIII asrlar oraligʻida Movarounnahr va Xurosonda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy muhit Islom olamiga barcha fan tarmoqlari boʻyicha yetuk olimlarning navbatdagi avlodini yetishtirib berdi. Jumladan, lugʻatchilik ilmi tarixida alohida zikr etiluvchi Abu Yusuf Forobiyning (vaf. 950-y.) “Dīwān al-adab”, Ismoil Javhariyning (vaf. 1002-y.) “Tāj al-lugha wa-ṣiḥāḥ al-ʻarabiyya” va Mahmud Koshgʻariyning (vaf. 1074-y.) “Dīwān lugʻāt at-turk” muʼjamlari davr ilmiy tafakkurining inʻikosi boʻla oladi. Mazkur lugʻatlar arab tilida yozilgan boʻlib, dastlabki ikkitasi arab, keyingisi esa turkiy tilga doir. Mulohaza oʻrnida qayd etish joizki, uchala lugʻat ham bir-biridan suv ichgan, taʼsirlangan. Xususan, Javhariy togʻasi Forobiy qoʻl ostida va uning ilmiy davralarida boʻy choʻzgan, har tomonlama qoʻllab-quvvatlovi bilan ulgʻaygan. Koshgʻariy esa oʻz “Devon”ini tuzishda zamonasigacha yetib kelgan manbalar qatorida zamondoshi Forobiyning “Devon”idan ham istifoda etgan. Ikki “Devon” oʻrtasidagi oʻxshashliklar buni tasdiqlaydi. Umuman olganda, deyarli bir davrga mansub va fanning tor sohasiga doir uchta asarning oʻz bobida hamon unikal boʻlib qolayotgani davr ilmiy muhitining ijobiy ranglaridan darak beradi.

Ismoil ibn Hammod Javhariy Naysoburiy Forobiy tomonidan tuzilgan “Tāj al-lugha wa-ṣiḥāḥ al-ʿarabiyya” lugʻati ham arab leksikografiyasi tarixida yangi sahifa boʻlib ochilgan edi. “Javhariy maktabi” yoki “Sihoh uslubi” yoki “qofiya metodi” yoki “bob va fasl maktabi” deb atalgan ushbu lugʻat tuzish uslubiga koʻra soʻzlar birinchi harfiga qarab emas, balki oxirgi harfiga qarab alifbo tartibida joylashtiriladi. Soʻng boʻlimlarni tuzishda alifbo harflarining tartibiga qaraladi. Birinchi boʻlib “bob”lar keladi, boblar esa “fasl”lardan tarkib topadi. Masalan, بسط (“bst”) soʻzi oxiri “ط” (t) harfi bilan tugaganligi uchun “ت” bobiga kiritilib, “ب” (b) harfi bilan boshlangani uchun “ب” faslidan izlanadi. Umuman olganda, “aṣ-Ṣiḥāḥ” lugʻati yaratilgan davr (XI-XII asr) arab lugʻatchiligi tarixida lugʻatshunoslikning “uygʻonish davri” yoki “oltin asri” deb eʼtirof etiladi. Undan oldingi lugʻatlar mavzularni tartibga solish jihatidan ancha murakkab va qiyin tuzilishga ega edi. Shu sababli bir soʻzning maʼnosini topish uchun koʻpincha bir nechta murakkab bosqichlardan oʻtishga toʻgʻri kelardi. “Aṣ-Ṣiḥāḥ” lugʻati esa oʻz uslubi bilan mana shu qiyinchilikni ancha oson va qulay qilib qoʻydi. Shuningdek, ushbu asar turli til hodisalarining nazariy va amaliy tadqiqi uchun ham muhim manba boʻla oladi. Xususan, Javhariy oʻz lugʻatida arab tilidagi koʻp maʼnoli birliklar va semantik qarama-qarshilik hodisalariga ham alohida eʼtibor qaratib, al-aḍḍād الأضداد deb ataluvchi, oʻzida ikkita qarama-qarshi maʼnoni jamlagan enantiosemik birliklarni ham misollar bilan keltirib oʻtadi. Javhariy ushbu til hodisasini alohida nazariy izoh sifatida keng muhokama qilmasa-da, lugʻat maqolalarini berish jarayonida oʻzaro zid maʼnolarini keltirish orqali bu hodisaga yondashuvini koʻrsatadi. Lugʻat maqolalarida koʻpincha bir leksik birlik uchun ikki xil, baʼzan esa bir-biriga zid boʻlgan maʼnolar ketma-ket qayd etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilida oʻzida ikki qarama-qarshi maʼnoni ifodalashi mumkin boʻlgan leksik birliklar (enantiosemiya) arab lugʻatlarining turli maktablari orqali bizgacha yetib kelgan. Enantiosemiya (الأضداد) hodisasi Xalil ibn Ahmadning “al-ʿAyn”idan tortib Zabidiyning “Tāj al-ʿarūs” lugʻatiga qadar davom etgan davrda yaratilgan lugʻatlarda ham qayd etilgan. Masalan, “al-Jamhara”, “al-Bāriʿ”, “al-Muḥīṭ”, “Tahdhīb al-lugha”, “al-Maqāyīs”, “Lisān al-ʿArab”, “Shams al-ʿulūm”, “al-Qāmūs al-Muḥīṭ”, shu jumladan “aṣ-Ṣiḥāḥ” kabi lugʻatlar ham ikki qarama-qarshi maʼnoni ifodalovchi leksemalarni misollar bilan keltirib oʻtadi. Masala faqat lugʻatlar bilan cheklanib qolmay, tilshunoslar bu turdagi soʻzlarga alohida asarlar bagʻishlab, mustaqil kitoblar taʼlif etganlar. Jumladan, Qutrub (206 h./821 m.), Asmaiy (216 h./831 m.), Ibn Sikkit (244 h./858 m.), Abu Hotam Sijistoniy (255 h./869 m.), Ibn Anbariyning (328 h./940 m.) “al-Aḍḍād” nomli asarlari, Abu Tayyib (351 h./962 m.), Ibn ad-Dahhan (569 h./1174 m.) qalamiga mansub risolalar va boshqa manbalardan ham Javhariy oʻzining “aṣ-Ṣiḥāḥ” lugʻatida azdad soʻzlarni izohlashda keng foydalangan. Shu tariqa “aṣ-Ṣiḥāḥ” lugʻatidagi enantiosemik birliklar aniqlanib, ular tahlilii, qiyosiy, kontekstual tahlil metodlari yordamida tadqiq etildi (Sotvoldiev, 2024, pp. 125-129).

Natijalar. Arab tilshunosligida azdād (enantiosemiya) termini o‘zida ikki qarama-qarshi ma’noni jamlagan leksemalarga nisbatan qo‘llanadi. Masalan, الصريم so‘zi “tun” va “kunduz” ma’nolarini bildiradi; الناهل so‘zi “chanqagan” va “tashnaligi qongan” ma’nolarini anglatadi; السليم esa “sog‘lom” va “bemor” ma’nolarini bildiradi va hokazo. Biroq azdād atamasini ikki turli leksemalar ziddiyati asosiga qurilgan tazād (antonimiya) hodisasi bilan chalkashtirmaslik muhimdir: oq – qora, sevgi – nafrat, saxovat – baxillik kabi. الأضداد so‘zi “ضد” (zid, qarama-qarshi) so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, bu hodisa “mushtarak lafziy” (polisemiya) hodisasining bir ko‘rinishi sifatida ham baholanadi. Zamonaviy tadqiqotchilardan doktor Ibrohim Anis esa boshqa fikrni ilgari suradi (Anīs, 1984, pp. 102-108). Uningcha, ba‘zan mushtarak lafziyning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillar azdād hodisasining yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, u shuni ta’kidlaydiki, “azdād” deb atalgan ayrim so‘zlarni tilshunoslar aslida mushtarak lafziy doirasiga kiritganlar. Muhammad Husayn Yasin esa azdādni mushtarak lafziy tarkibiga kiritmaslik tarafdori bo‘lib, mushtarak lafziy bilan azdād o‘rtasida, so‘zning ikki yoki undan ortiq ma’noga ega bo‘lishidan tashqari, boshqa o‘xshashlik yo‘qligiga e’tibor qaratadi (Āl Yāsīn, 1974, p. 58). Shunday qilib, enantiosemiya borasidagi izlanishlar umumlashtirilganda, mazkur hodisaga muayyan leksik hodisaning (antonimiya, polisemiya yoki omonimiya) alohida ko‘rinishi; ikki leksik hodisaning (omonimiya va antonimiya, polisemiya va antonimiya yoki polisemiya va omonimiya) kesishuvdagi hodisa; alohida leksik hodisa sifatida yondashilgani ma’lum bo‘lmoqda (Sotvoldiev, 2024, pp. 15-17).

Javhariy ham o‘zining “aṣ-Ṣiḥāḥ” lug‘atida keltirgan azdad so‘zlarni izohlar ekan, yuqoridagi kabi turfa qarashlarni keltirib o‘tadi. Quyida “aṣ-Ṣiḥāḥ”ga kiritilgan bir nechta enantiosemik birliklarni tahlil qilib o‘tamiz.

“قرأ” (qr’) – fatha bilan “al-qar’u” so‘zi nopoklik (xayz) va poklik ma’nolarini anglatadi (Al-Jawharī, 2009, p. 64). Ko‘plik shakli aqrā’un, yoki fu‘ūlun vaznidagi qurū’un bo‘lib, bir paytda ayollarning xayz ko‘rishini ham, poklanishini ham ifoda etadi. Javhariy bu so‘zni vaqt-temporallik semasini nazarda tutadi va bir leksemaning ikki qarama-qarshi ma’no anglatish sababi sifatida shevalardagi o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi. Masalan, “al-qar’u” so‘zi Iroq shevasida “xayz”, Hijoz shevasida “poklanish” ma’nosida ishlatiladi. Masalan: أقرأت المرأة deyilsa, “ayol pok bo‘ldi” degan ma’noni bildiradi.

“ناء” (nv’) – “uzoqlashdi, chetga chiqdi” ma’nosida. Shuningdek, “turdi” yoki “yiqildi” ma’nolari anglatuvchi ushbu leksema azdad so‘zlar jumlasidandir (Al-Jawharī, 2009, p. 78). Biroq Abu Tayyib bu fe’lni azdadlar qatoriga kiritmaydi (Abū al-Ṭayyib, 1995, p. 14). Ibn Durayd ham o‘z tadqiqotida ناء so‘zining asl ma’nosi ko‘tarilish yoki og‘ir yuk bilan turish ekanini aytadi va uni azdad qatoriga kiritishga qarshi chiqadi. Demak, bu yerda ko‘rinayotgan qarama-qarshilik haqiqiy semantik zidlik emas, balki yaqinlashtirish va tashbeh (o‘xshatish) asosida yuzaga kelgan.

Chunki ba'zan egilib turgan odamning holati yiqilib tushayotgan odamning holatiga o'xshab ketadi. Shu sababli ناء so'zida ko'rilgan qarama-qarshilik aslida so'zning majoziy qo'llanishi natijasida yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

“خشب” (xshb) – tig'i hali o'tkirlanmagan qilich ma'nosini bildiradi, shuningdek, bu leksema “sayqallangan” ma'nosida ham qo'llanadi. Biroq Javhariy bu haqiqiy semantik qarama-qarshilik emasligiga urg'u berib o'tgan (Al-Jawharī, 2009, p. 119). Ya'ni qilich dastlab tayyorlanayotganda ishlov berilmagan holatda bo'ladi, keyin sayqal beriladi. Shuning uchun u ba'zan qo'pol qilichni ham, sayqal berilgan qilichni ham anglatishi mumkin. Demak, bu yerda ma'no kengayishi va umumlashuvi yuz bergan, lekin haqiqiy zidlik mavjud emas.

“شعب” (sh'b) so'zi biror narsadagi yoriq yoki darz ma'nosini bildiradi. Bu so'z yana tuzatish yoki birlashtirish ma'nosini ham anglatadi (Al-Jawharī, 2009, p. 156). Masalan: شعبت الشيء deyilsa, “uni yordim” yoki “uni ajratdim” degan ma'noni bildiradi; شعبته esa “uni birlashtirdim” ma'nosini bildiradi. Shuning uchun arablar: التأم شعبهم (“ular ajralganidan keyin yana birlashdilar”) yoki تفرق شعبهم (“ular birlashgandan keyin ajralib ketdilar”) deb aytadilar. Bu so'z azdād (qarama-qarshi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar) qatoriga kiradi. Xalil ibn Ahmad bu masalaga izoh berib shunday degan: “Bu arablarning til xususiyatlaridan biridir. Arab tilida ba'zan sha'b so'zi ajralish ma'nosini bildirsa, ba'zan esa birlashish ma'nosini bildiradi. Bu haqda she'riy matnlarda ham misollar mavjud” (Ibn al-Anbārī, 1987, p. 236). Javhariy ham shu sababli o'z lug'atida التأم شعبهم “وتفرق شعبهم” iborasini keltirib, bu yerda ma'no kontekst orqali aniqlanishini ko'rsatadi.

“طلب” (tlb) “talab qildi”, “so'radi” ma'nosini beruvchi uchbu so'z الأضداد (enantiosemik so'zlar) qatoriga kiritiladi. Arablar shunday deydilar: أطلب الماء – ya'ni suv uzoqlashdi yoki yo'qoldi, keyin izlab ham topilmadi (Al-Jawharī, 2009, p. 172). Ba'zan so'z boshiga hamza qo'shilishi orqali yangi ma'no hosil bo'ladi. Bu holatda hamza “ketkazuvchi” (همزة الإزالة) deyilib, teskari ma'no hosil qiladi. Ibn Duraid o'z tadqiqotida “Arab tilining qoidalarini yaxshi bilmaganlar hamzaning so'z boshiga qo'shilishi yoki qo'shilmasligi o'rtasidagi farqni ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular bunday so'zlarni azdad deb o'ylaydilar. Aslida esa bu bir so'zning ikki qarama-qarshi ma'noga ega bo'lishi emas, balki so'z tuzilishidagi o'zgarish natijasida hosil bo'lgan ma'no farqidir”, deya qayd etadi (Şubḥī al-Şāliḥ, 1968, p. 98). Bu esa enantiosemiya hodisasini aniqlashda so'zning tuzilishi va kelib chiqishini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

“غلب” (g'lb) “g'olib bo'ldi” ma'nosidagi ushbu leksik birlikning “al-muğallab” shakli “mag'lub bo'lgan kishi” ma'nosida qo'llanadi va enantiosemik so'zlar qatoriga kiritilgan (Al-Jawharī, 2009, p. 195). Biroq bu shaklda yuzaga kelgan qarama-qarshilikda ijtimoiy omillarning ta'siri ham mavjud. Masalan, shoirlar mag'lub bo'lgan shaxsni kinoya yoki mubolag'a tarzida “g'olib” deb atashlari mumkin. Bu haqida Asma'iydan quyidagi misol rivoyat qilingan: رأيت الناس مغلوبًا مُقْصَرًا، مثل النابغة الجعدي غلبته ليلي الأخيلية، وسوار بن جنان

shoirilar tomonidan yengilgan bo'lsalar ham, ularni istehzoli tarzda "g'olib" deb atashgan. Shunday qilib, bu yerda al-muğallab so'zining ishlatilishi asl ma'noda emas, balki adabiy kinoya yoki istehzo ma'nosida yuzaga kelgan.

"قَعَثَ" (q'th) so'zi "mol-mulkini sovurdi" yoki "katta sovg'a berdi" ma'nolarida ham ishlatiladi. "أَقَعَثَ لَهُ الْعَطِيَّةَ – ko'p sovg'a berdi, أَقَعَثَ لَهُ – oz sovg'a berdi" (Al-Jawharī, 2009, p. 290). Boshqa ko'plab arab lug'atlari esa bu zid ma'noni keltirmagan. Bu holat esa tilshunoslar ushbu so'zni haqiqiy enantiosemik birlik sifatida qabul qilmaganliklarini ko'rsatadi.

"صَرَخَ" (srx) "yordamga kelgan" yoki "yordam bergan" kishi ma'nolarida ishlatilib, "yordam so'ragan" kishi ma'nosini ham bildiradi (Al-Jawharī, 2009, p. 426). Bu so'z arab tilida enantiosemiya hodisasiga misol sifatida tez-tez keltiriladi. U الأضداد haqidagi kitoblarda, lug'atlarda hamda tilshunoslik va semantika tadqiqotlarida ko'p tilga olinadi. Aslida bu yerda zid ma'no mushtarak semantik asosga tayanadi va uni tushunish qiyin emas. Chunki šarīx so'zining asosiy ma'nosi – baland ovozda chiqarish yoki qichqirishdir. Arab tilida šarx (صرخ) so'zining ildizi ham aynan ovozni baland ko'tarish ma'nosini bildiradi. Bu umumiy ma'no kontekstga qarab ikki xil talqinga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, ikkala ma'no ham bir ildizdan kelib chiqqan va aslida bir semantik asosga borib taqaladi.

"هَجَدَ" (hjd) "hajada" fe'li "kechasi uxladi" degan ma'noni bildirsa-da, uning "kechasi ibodat qilish uchun bedor bo'lish" ma'nosidagi tahajjada shakli ko'p ishlatiladi (Al-Jawharī, 2009, p. 255). Masalan, tahajjud – tungi namozni bildiradi. Aslida bu so'zning asosiy ma'nosi – uyqu bilan bog'liq. Tahajjud esa uyquni tark etib bedor bo'lish ma'nosini bildiradi. Bu ma'no hajada fe'lidan hosil bo'lgan tafā'ul (تَفَعَّلَ) vaznidagi tahajjada shakli orqali yuzaga keladi. Bu yerda zid ma'no morfologik o'zgarish natijasida paydo bo'ladi. So'z shaklining o'zgarishi ma'noga ham ta'sir qiladi.

"هَمَدَ" (hmd) "hamada" fe'li "bir joyda turdi, to'xtab qoldi", shuningdek, "ahmada" fe'li esa yurishda tezlashdi ma'nosini anglatadi (Al-Jawharī, 2009, p. 556). Shu sababli bu negiz الأضداد (enantiosemik so'zlar) qatoriga kiritilgan. Bu yerda ehtimol fonetik almashuv (ibdāl) hodisasi mavjud bo'lib, ya'ni muhmal dāl (د) bilan nuqtali dāl (ذ) o'rtasidagi tovush almashuvi sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. Aynan shu fonetik o'zgarish natijasida so'z zid ma'noli shakllar qatoriga kiritilgan. Masalan, nuqtali dāl bilan kelgan shaklda hamada so'zi tez yurish ma'nosini bildiradi. Arab tilida dāl va dhāl tovushlarining o'zaro almashuvi keng tarqalgan hodisa bo'lib, bu haqda ibdālga bag'ishlangan asarlarda ko'plab misollar berilgan. Shu sababli, bu yerda yuzaga kelgan zid ma'no aslida bir so'zning haqiqiy enantiosemiya hodisasi emas, balki fonetik almashuv natijasida ikki shaklning aralashib ketishi bilan izohlanadi. Natijada dastlab ikki alohida shakl bo'lgan so'zlar vaqt o'tishi bilan bitta shakl sifatida qabul qilingan.

**Xulosa.** Javhariyning “Şihāh” lugʻatida taxminan 5000dan ortiq oʻzak mavjud boʻlsa ham, bu oʻzaklardan olingan soʻzlar oʻn minglab birliklarni tashkil etadi. Shunga qaramay, Javhariy keltirgan enantiosemik birliklar soni atigi qirq oltita bilan cheklanadi. Javhariy – koʻplab boshqa olimlardan farqli ravishda – soʻzlarda yuzaga kelgan semantik ziddlik sabablarini chuqur tahlil qilishga uncha eʼtibor bermagan. Baʼzi hollarda enantiosemik birlikni faqat Javhariy oʻzi keltiradi, boshqa olimlar esa bu fikrni qabul qilmaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, Javhariy ham, undan keyingi koʻplab lugʻatshunoslar ham baʼzan enantiosemik soʻzlarni bir-birlaridan tekshirmasdan keltirib kelganlar. Natijada arab tilida aslida mustahkam dalilga ega boʻlmagan ayrim soʻzlar ham enantiosemiya misoli sifatida koʻrsatilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Al-Jawharī, I. ibn Ḥammād. (2009). *Al-Şihāh fī al-Lughah* [Arabic–Arabic dictionary] (5 vols.). Beirut: Dār Iḥyāʾ al-Turāth. (In Arabian)
2. Āl Yāsīn, Muḥammad Ḥusayn. (1974). *Al-Aḍḍād fī al-Lughah* (Contronyms in the Arabic language). Baghdad: Maṭbaʿat al-Maʿārif. (In Arabian)
3. Abū al-Ṭayyib al-Lughawī. (1995). *Al-Aḍḍād fī Kalām al-ʿArab* (Contronyms in the speech of the Arabs) (Ed. ʿIzzah Ḥasan). Damascus: Dār Ṭalās. (In Arabian)
4. Ibn al-Anbārī, Abū Bakr Muḥammad ibn al-Qāsim. (1987). *Al-Aḍḍād* (Ed. Muḥammad Abū al-Faḍl Ibrāhīm). Beirut–Sidon: Al-Maktabah al-ʿAşriyyah. (In Arabian)
5. Sirojiddin SOTVOLDIEV. (2024). Lexical-Semantic And Functional Analysis Of Translations From The Arabic Press. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 39, 15–17. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/5817>
6. Sirojiddin Sotvoldiev. (2024). AUTOANTONYMY AND ENANTIOSEMY: A COMPARATIVE LINGUISTIC ANALYSIS OF OPPOSITIONAL MEANINGS IN LANGUAGE. *American Journal of Philological Sciences*, 4(12), 125–129. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume04Issue12-22>
7. Şubḥī al-Şāliḥ. (1968). *Dirāsāt fī fiqh al-lughah* (Studies in Arabic philology). Beirut: Dār al-ʿIlm lil-Malāyīn. (In Arabian)
8. Anīs, I. (1984). *Dalālat al-alfāz* (Semantics of words). Cairo: Anglo-Egyptian Bookshop.